

BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISHDA BUDJET-SOLIQ SIYOSATINING ROLI

Imamova Gulshan Tursunmurod qizi²⁰⁶

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda amalda bo‘lgan budjet-soliq siyosatining barqaror rivojlanishga ta’siri tahlil qilingan. Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayangan holda fiskal barqarorlikni ta’minlashda pensiya, sog‘liqni saqlash va soliq tizimidagi islohotlarning o‘rni ochib berilgan. “O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasidagi maqsadlar bilan uzviy bog‘liq ravishda fiskal siyosat orqali iqtisodiy o‘rishni jadallashtirish va ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish yo‘nalishlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Barqaror rivojlanish, fiskal siyosat, soliq tizimi, budjet xarajatlari, pensiya tizimi, sog‘liqni saqlash, iqtisodiy o‘rish, makroiqtisodiy tahlil, fiskal islohot, davlat daromadlari.

Kirish. Mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘rishini ta’minlashda samarali budjet-soliq siyosatini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Global moliyaviy-inqirozli sharoitlar, ijtimoiy tengsizlik, ekologik muammolar va pandemiyadan keyingi iqtisodiyotda tiklanish jarayonlari davlatlar oldida yangi vazifalarni yuzaga chiqarmoqda. Shu nuqtai nazardan, fiskal siyosat vositalaridan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy o‘rish sur‘atlarini oshirish, aholining turmush darajasini yaxshilash hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham davlat moliyasini boshqarish sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, o‘rta muddatli budjetlar tizimi, ijtimoiy xarajatlar ochiqqligi, soliq-budjet siyosatining barqarorligi va natijadorlikka yo‘naltirilganligi ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlarning asosiy yo‘nalishlarini belgilab bermoqda. Ushbu maqolada budjet-soliq siyosatining barqaror rivojlanishga ta’siri, mavjud muammolar va ularni hal qilish yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, ayrim xorijiy davlatlar tajribasi asosida O‘zbekiston sharoitida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ilg‘or yondashuvlar ham ko‘rib chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat pensiyalari va sog‘liqni saqlash xarajatlari davlat byudjetining katta qismini egallaydi (mos ravishda 40% va 30%; IMF, 2014f). Aholining qarishi bu xarajatlarning yanada oshishiga sabab bo‘lib, uzoq muddatli fiskal barqarorlikka xavf tug‘dirishi mumkin. Shu sababli, har qanday fiskal islohot strategiyasi pensiya va sog‘liqni saqlash tizimlaridagi o‘zgarishlarni ham o‘z ichiga olishi lozim (Blanchard va Cottarelli, 2010).

²⁰⁶ Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti magistranti, gulshanmamova1211@gmail.com

Ba’zi davlatlar pensiya va sog‘liqni saqlash tizimini o‘zgartirish orqali fiskal barqarorlikni mustahkamlashga erishgan. Masalan, Polsha barqaror bo‘lmagan eski pensiya tizimidan (defined-benefit) moliyaviy jihatdan bardoshli bo‘lgan yangi tizimga (defined-contribution) o‘tgan. Germaniya esa pensiya tizimini mustahkamlash maqsadida pensiya miqdorini qariyalar sonining mehnatga layoqatli aholiga nisbati bilan bog‘lagan, erta pensiyaga chiqish shartlarini murakkablashtirgan va pensiya yoshini oshirgan.

Sog‘liqni saqlash sohasida Germaniya va Niderlandiya xarajatlarni kamaytirish va tizim samaradorligini oshirish uchun turli islohotlarni amalga oshirgan. Ular dorilarga narx nazorati o‘rnatish, bemorlarning qo‘shimcha to‘lovlari va sug‘urta badallarini oshirish hamda byudjet chegaralarini joriy etish kabi choralardan foydalangan. Soliq-ijtimoiy ta‘minot tizimi hisoblanadi. Mehnat daromadlariga solinadigan soliqlar va ijtimoiy nafaqalar odamlarning ishga kirish va qancha ishlash haqidagi qarorlariga ta’sir qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu omil ayniqsa kam daromadli guruhlar, ayollar va yoshi katta ishchilar uchun muhim (IMF, 2014a; OECD, 2011). Mehnat soliqlari va ijtimoiy nafaqalar bo‘yicha islohotlar Avstraliya, Chili, Germaniya, Irlandiya va Niderlandiyada amalga oshirilgan. Devereux va Love (1994) hamda Turnovsky (2000) ish haqi soliqlarining pasaytirilishi ishchi kuchi taklifini oshirib, uzoq muddatli iqtisodiy o‘rishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini aniqlashgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda tizimli tahlil, solishtirma tahlil va statistik uslublar qo‘llanildi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi o‘rganilib, ularning fiskal siyosatdagi muhim yondashuvlari O‘zbekiston sharoitiga moslashtirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. O‘zbekistonda amalda bo‘lgan byudjet-soliq siyosati iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash va ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Ushbu siyosat, xususan, davlat daromadlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita soliqlar orqali shakllantirish hamda byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishni ta‘minlashga xizmat qiladi.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan vazifalardan kelib chiqib iqtisodiy o‘rish 2025-yilda 6,2 foizni va 2026-yilda esa 6,4 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Ushbu ko‘rsatkichlar natijasida aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmini 2024-yildagi 2 698 AQSH dollaridan 2026-yilga kelib 3 055 AQSH dollarigacha oshirish rejalashtirilgan.

1-jadval. Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozlari²⁰⁷

T/r		2022	2023	2024	2025	2026	2027
1	YaIM o‘shish sur‘ati foizda	5,7	6,0	6,0	6,2	6,4	6,2-6,4
2	Aholi jon boshiga YaIM hajmi AQSh doll.	2 275	2 496	2 698	2 950	3 055	3 200
3	Sanoat, o‘shish sur‘ati, foizda	5,3	6,0	7,0	7,6	7,5	7-7,5
4	Qurilish, o‘shish sur‘ati, foizda	6,6	6,4	6,3	7,2	7,3	7-7,3
5	Qishloq o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari, o‘shish sur‘ati, foizda	3,6	4,1	4,0	4,1	4,1	4-4,5
6	Bozor xizmatlari, o‘shish sur‘ati, foizda	16,3	13,7	17,0	14,0	14,9	14,5-15,5

Yuqoridagi jadval O‘zbekiston Respublikasining 2022-yildan 2027-yilgacha bo‘lgan asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari o‘shish sur‘atlari prognozini aks ettiradi. Tahlildan ko‘rinib turibdiki, mamlakat iqtisodiyoti barqaror o‘shish trayektoriyasini saqlab qolmoqda. YaIM o‘shish sur‘atlari 2022-yilda 5,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yildan boshlab 2026-yilgacha bu ko‘rsatkich bosqichma-bosqich oshib, 2026-yilga kelib 6,4 foizga yetishi kutilmoqda. Bu iqtisodiy o‘shishning davomiy va barqaror xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. 2027-yilga kelib o‘shish sur‘ati 6,2–6,4 foiz atrofida bo‘lishi rejalashtirilgan. Aholi jon boshiga YAIM hajmi ham ijobiy dinamikani namoyon etmoqda. 2022-yilda bu ko‘rsatkich 2 275 AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2026-yilga kelib 3 055 AQSh dollarigacha o‘sishi, 2027-yilda esa 3 200 dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu iqtisodiy o‘shishning aholining turmush darajasiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini anglatadi. Sanoat sektorida o‘shish sur‘atlari 2022-yildagi 5,3 foizdan 2024-yilda 7 foizga, 2025-yilda esa 7,6 foizga yetishi ko‘zda tutilgan. Bu tarmoq mamlakat iqtisodiyotining asosiy drayverlaridan biri sifatida o‘z mavqeini mustahkamlab borayotganini bildiradi.

Qurilish sohasida ham o‘shish tendensiyasi kuzatilmoqda. 2022-yildagi 6,6 foizli o‘shish 2025-yilda 7,2 foizga, 2026-yilda esa 7,3 foizga yetishi kutilmoqda. Bu infratuzilma va uy-joy qurilishiga bo‘lgan talab ortib borayotganini ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligi (shu jumladan o‘rmon va baliqchilik) sektorida esa o‘shish nisbatan barqaror, ammo pastroq darajada saqlanmoqda – 4 foiz atrofida. Bu sohaga innovatsiyalar joriy etish va samaradorlikni oshirish orqali yanada yuqoriroq o‘shish sur‘atlariga erishish imkoniyati mavjud. Bozor xizmatlari sohasi esa eng yuqori

²⁰⁷ <https://www.imv.uz>

o‘sish sur‘atlari bilan ajralib turadi. 2022-yilda bu sohadagi o‘sish 16,3 foizni tashkil qilgan, 2024-yilda 17 foizga chiqishi kutilmoqda. Keyingi yillarda bu ko‘rsatkich 14–15,5 foiz atrofida bo‘lishi rejalashtirilgan. Xizmatlar sektoridagi bunday faollik iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuviga xizmat qilmoqda.

Xulosa. O‘zbekistonda olib borilayotgan budjet-soliq siyosati iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash va ijtimoiy sohalarning moliyaviy mustahkamligini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, YaIM, sanoat, qurilish va xizmatlar sektori kabi sohalarda barqaror o‘sish kuzatilmoqda. Xususan, soliq siyosatini takomillashtirish orqali fiskal resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari mavjud. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, pensiya va sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar uzoq muddatli fiskal barqarorlikni ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi. Kapital va mehnat soliqlarini maqbullashtirish esa iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

1. Pensiya va sog‘liqni saqlash tizimlarida islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan mexanizmlarni ishlab chiqish.
2. Mehnat daromadlari va kapitalga solinadigan soliqlar bo‘yicha soliq yukini optimallashtirish orqali investitsiya muhitini yaxshilash.
3. Davlat xarajatlarining samaradorligini oshirish maqsadida natijaviy byudjetlashtirish tamoyillarini joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. 2014f, (April) Fiscal Monitor: Public Expenditure Reform, Making Difficult Choices (Washington: International Monetary Fund).
2. Blanchard, O. and Cottarelli, C., 2010, “Ten Commandments for Fiscal Adjustment in Advanced Economies,” IMFdirect, Global Economy Forum.
3. 2014a, (October), Fiscal Monitor: Back to Work, How Fiscal Policy Can Help (Washington: International Monetary Fund).
4. Devereux, M. and D. Love, 1994, “The Effects of Factor Taxation in a Two-Sector Model of Endogenous Growth” The Canadian Journal of Economics, Vol. 27(3), pages 509-536.
5. Turnovsky, S., 2000, “Fiscal Policy, Elastic Labour supply and Endogenous Growth,” Journal of Monetary Economics, Vol. 45, pages 185-210.
6. <http://www.mf.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi Rasmiy sayti)